

**SKARLATINA KASALLIGINING ASOSIY BELGILARI
VA UMUMIY TUSHUNCHALAR**

Kasimov Osimjon Abdusakimovich

“Alfraganus university” nodavlat olyi ta’lim tashkiloti.

Klinik fanlar kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar orasida keng tarqalgan skarlatina kasalligi uning kelib chiqish sabablari, asosiy belgilari va davolash usullari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, bolalar kasalliklarining oldini olish uchun profilaktika choralar haqida tavsiyalar ham beriladi.

Kalit so'zlar: infektsiya, skarlatina, antibiotiklar, gigiena, profilaktika, immunitet.

Аннотация: В данной статье представлена информация о широко распространённой среди детей скарлатине, её причинах возникновения, основных симптомах и методах лечения. Также даны рекомендации по профилактическим мерам для предотвращения детских заболеваний.

Ключевые слова: инфекция, скарлатина, антибиотики, гигиена, профилактика, иммунитет.

Annotation. This article provides information about scarlet fever, a common illness among children, including its causes, main symptoms, and treatment methods. Additionally, recommendations on preventive measures to protect children from diseases are given.

Keywords: infection, scarlet fever, antibiotics, hygiene, prevention, immunity.

Kirish

Skarlatina – bolalar orasida keng tarqalgan yuqumli kasalliklardan biri bo’lib, uning asosiy sababchisi guruh-A streptokokk bakteriyasıdir. Ushbu kasallik tomoq og’rig’i, yuqori harorat va terida mayda qizil toshmalar paydo bo’lishi bilan xarakterlanadi. Skarlatina havo-tomchi yo’li orqali oson yuqadi va o’z vaqtida davolanmasa, revmatizm, buyrak asoratlari kabi jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.Ushbu maqolada skarlatinaning kelib chiqish sabablari, asosiy belgilari, yuqish yo’llari va davolash usullari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, kasallikning oldini olish choralar va profilaktika usullari ham tahlil qilinadi.

Skarlatina – bu guruh-A streptokokk bakteriyasi orqali yuqadigan yuqumli kasallik bo’lib, asosan bolalarda uchraydi. Kasallik tana haroratining oshishi, tomoq og’rig’i va badanga xos qizil toshmalar chiqishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, "malinali til" simptomni (tilning qizil va quruq bo’lishi) ham skarlatinaning muhim

belgilaridan biri hisoblanadi. Infektsiya asosan havo-tomchi yo’li orqali yuqadi va o’z vaqtida davolanmasa, og’ir asoratlarga olib kelishi mumkin.

Belgilari:

- Tomoq og’rig’i va yutishda qiyinalish
- Yuqori harorat (38–40°C)
- Tanada qizil toshmalar (alohida qizil nuqtalar shaklida)
- Tilning qizil va quruq bo’lishi (“malinali til”)
- Bosh og’rig’i, xolsizlik va qayt qilish

Kasallik qanday yuqadi?

- 1.Havo-tomchi yo’li orqali (yo’tal, aksirish, suhbatda).
- 2.Jismoniy kontakt orqali (o’yinchoqlar, idish-tovoq).
- 3.Infektsiyalangan shaxs bilan bir joyda bo’lish orqali.

Davolash usullari:

1. Antibiotik terapiya – shifokor tavsiyasiga ko’ra penisillin yoki uning analoglari.
2. Dam olish va ko’p suyuqlik ichish.
3. Haroratni tushirish – ibuprofen yoki paracetamol.
4. Tomoqni chayqash – tuzli suv, romashka yoki antiseptik eritmalar.

Profilaktika choralar:

- Bolalarga gigiena qoidalarini o’rgatish;
- Immunitetni mustahkamlash (to’g’ri ovqatlanish, vitaminlar);
- Kasallanganlar bilan muloqotni cheklash;
- Og’iz va qo’l gigienasini ta’minalash.

XULOSA

Bolalar sog’lig’ini saqlash uchun profilaktika choralariga rivoja qilish juda muhimdir. Shifokor ko’rsatmalariga amal qilish, o’z vaqtida davolash va sog’lom turmush tarzini ta’minalash bolalar kasalliklarini oldini olishda asosiy omillardan hisoblanadi. Agar farzandingizda biror kasallik alomatlari kuzatilsa, darhol mutaxassisga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Takliflar:

1. Bolalarni gigiena va shaxsiy sog’liqni saqlash odatlariga o’rgatish.
2. Maktab va bog’chalarda sog’lom muhitni ta’minalash.
- 3.Ota-onalar uchun tibbiy maslahat berish va profilaktika bo’yicha ma’lumot tarqatish.
4. Kasallangan bolalarni erta aniqlash va o’z vaqtida davolash tizimini kuchaytirish.

Bu choralar bolalar orasida kasalliklar tarqalishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi. "Bolalar infektsiyasi" bo’yicha amaliy qo’llanma. Toshkent, 2022.
2. Dunyo sog’liqni saqlash tashkiloti (WHO). "Bolalar kasalliklarining oldini olish va davolash bo’yicha tavsiyalar". Jeneva, 2021.
3. Pediatriya va infektsion kasalliklar jurnali. "Skarlatina va uning asoratlari". Moskva, 2020.
4. Husanov Sh. "Bolalardagi otit: sabablari va davolash usullari". Tibbiyot ilmiy jurnali, 2019.